

Ona yurting - oltin beshiging

# TONG Yulduzi

No 32 (66365)  
2002 yil  
5 avgust,  
dushanba  
Sotuvda  
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan.

## MAKTABIM FAZRRI MENING

Maktabimiz tumandagi eng namunali maktablardan biri. Ona tili, adabiyot, matematika, ingliz tili fanlariga ixtisoslashgan. Maktabimiz o'quvchilari bilimga chanqoq, intiluvchan o'g'il-qizlar. A'lachi, iqtidorli o'quvchilarimiz turli fan olimpiadalarida, «Yo'l qoidasi», «Yosh qalamkashlar», «Ekologiya va hayot» kabi ko'plab ko'rik-tanlovlarda müntazam qatnashib, yuqori o'rnlarni egallab kelmoqdalar.

Yaqinda maktabimiz «UNESCO»ga a'zo bo'ldi. Tantanamizga kelgan chet ellik mehmonlar uchun ingliz tilida maxsus bayram dasturi tayyorladik. Dasturimiz mehmonlarga ma'qul bo'lganini ularning gulduros qarsaklari, olqishlaridan bilib oldik. Chet ellik tengdoshlarimiz hayoti, ularning qiziqish va intilishlariga oid savollarimizga javob olib, o'zimiz haqimizda so'zlab berdik. Ular bilan bemalol tillashib, muloqot

qilayotganimizni kuzatib o'tirgan maktabimiz rahbari Xadicha opa Ubaydullayeva, Nargiza, Saodat, Sanoat opalar, hamda ingliz tili ustozlarimiz Nilufar, Feruza, Farida opalarning

Yozgi ta'til kunlari bo'lishiga qaramay, maktabimiz bag'ri bolajonlar bilan gavjum. «Bo'ston» oromgohida jippi uka va singillarimiz miriqib dam olishyapti. Shu bilan birga musiqa, raqs, shaxmat-shashka, «Mohir qo'llar» kabi turli to'garaklarga qatnab, bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazyaptilar, hunar o'rganyaptilar.

Ta'til, ta'til deymizu lekin qadrondon maktabimiz bag'ri, o'qish davri baribir boshqacha-da. Mehrbon ustozlarimni, sinfdoshlarimni juda sog'inib ketdim. Ularga aytar gaplarim ham ko'payib ketdi. Tezroq

sentabr kelaqolsaydi...

Malohat TO'XTAYEVA,  
Toshkent shahar, A.Ikromov  
tumanidagi 116 - maktabning  
8 - «B» sinfo o'quvchisi.



ko'zidagi quvonchni, faxr-iftixorni bir ko'rsangiz edi. Quvonmay bo'ladimi axir? Bizlarning bu darajaga yetishishimiz, uchun ular ozmuncha mehnat qilishdimi?! Biz shunday mehribon ustozlar qo'lida tahsil olayotganimizdan f a x r l a n a m i z .

Shu kunlarda Respublikamizda turli mavzudagi, turli nomdag'i gazeta va jurnallar ko'plab chop etilmoqda. Bolalarbop nashrlar ham talaygina. Lekin ular orasida bobo va buvilarimiz, ota-onalarimiz ham sevib o'qishgan, ularning bolalikdagi qadrondolraliga aylanib qolgan «Tong

MENING OTAXON GAZETAM

yulduzi» gazetasining o'm boshqacha.

Bu gazeta bizning ham sevimali nashrimiz. Uning har bir sonini intizorlik bilan

kutamiz, sahifalarini maroq bilan o'qib chiqamiz. «Tong yulduzi» - mizning chiqa boshlaganiga birinchchi avgustda 73 yil bo'libdi. Biz

ko'p sonli muxlislari nomidan otaxon gazetamizni tabarruk yoshi bilan qutlaymiz. Sahifalaring yanada mazmundor, rang-barang, o'qimishli bo'laversin, deymiz.

Hilola EGAMBERDIYEVA,  
Toshkent shaharidagi 112- maktab o'quvchisi.



## Yangi nashr

Bir necha kun avval bekatda hamkasbim Muhabbat opa Mahsudova bilan gazetani varaqlab turganimizda, yonimizga bir ayol keldida, bizni shu tahririyatda ishlashimizni fahmlab gapira ketdi:

- «Tong yulduzi»da ham ko'proq boshqotirmalar berilsa, qiziqarli voqealaru hikoyalarga kengroq joy ajratilsa bo'larkan. Ja-a jiddiy-da.

- Undoq demang, opajon, dedilar Muhabbat opa. «Tong yulduzi» o'quvchilarning - haq so'zi! Gazetamizda xilma-xil ruknlar mavjud. Har bir maqola dalil va isbotlarga asoslanadi. Masalan, «Zirapcha»da bosilgan muammolar o'z vaqtida yechimini topadi, mushtariyga ko'maklashadi. O'quvchilarning do'sti, hamfikri, hamkor, hamdardi va sirdoshi bo'lgan gazetamiz shunisi bilan talabgor. Biroq, kelajakda siz istagandek gazetalar ham safimizdan o'rins olsa ajabmas...

Mana, 1 avgustda yana bir yangi nashr - «Mezon» bosmadan chiqibdi. Uning nishona sonini ushlab turibmanu, hamkasbimning gaplari yodimga tushyapti. Lotin yozuviga asoslangan yoshtarbop gazeta sahifalari boshqotirma-yu krossvordlar, skavordlar jumboqlarga boy ekan. «Matbuot tarqatuvchi»

aksiyadorlik kompaniyasi muassisligida chop etilayotgan gazeta orqali yoshtar o'zbek milliy madaniyati, tarixi, dunyo sivilizatsiyasini boyitgan daholamizning merosidan bahramand bo'ladilar.

Biz «Mezon» gazetasining bosh muharriri Abdunazar aka Xudoynazarovni suhbatga chorladik:

- Ona zaminning, uni chulg'ab turgan

bo'lsa ne ajab.

Hayotimizda, ko'cha ko'yda, har qadamda uchrab turadigan muammolar, kishi asabiga, butun ruhiyatiga ta'sir qiladigan voqeahodisalar - terror, giyohvandlik, OITS, ekologik tanazzul kabi asr va davr vabolari, baloqazolari, bularning bari bor haqiqat. Ularning hammasi chor



Abdunazar  
XUDOYNAZAROV  
«Mezon» gazetasining  
bosh muharriri.

insof mezoni va boshqa juda ko'plab hayotiy o'chovlar bashariyat erishgan eng katta amaldir. Ularga rioya qilganlar, yangi-yangi qirralarini kashf etayotganlar komil insonlardir. Gazetamizning maqsadi ana shu komillikka ergashish, uni atroficha targ'ib qilishdir.

O'z gazetangizni o'qib boring, aziz yoshtar! Unga o'rgating, undan o'rganing, birlikda zafar cho'qqilarini zabit eting! Barchangizga omad yor bo'lsin! «Mezon» sizning gazetangiz.

- Sizlarning ham mas'uliyatli ishlaringizga barkamollik, omad tilayman. «Mezon» ham bizning otaxon gazeta singari oltmishdan oshib, yetmishga yetib, saksondan sakrab, to'qsonga to'qnashib, yuzga yuzlashib, mingga mingashsin. Bolalar va o'smirlarga mo'ljallangan gazetalar safi kengayaversin.

Muharrama  
PIRMATOVA.

## BOLALARNING HAQ SO'ZI

koinotning o'z mezonlari, toshu tarozisi bor deyishadi. Turmush jabhalarining ham o'ziga xos mezonlari mavjud. Ular faqat ijobiy

atrofimizda izg'ib yuribdi. Buni inkor etish yoki yuz o'girish yaramaydi. Aksincha, o'z tanamizdag'i fasodga qarshi qanday kurashsak, bu balolarni daf etishning ham ana shunday chora-tadbirlarini ko'rishimiz zarur. Bu yo'lda beparvolik, loqaydlik, sansalorlik, o'zni bilu o'zgani qo'y yo'sinida ish tutish, og'ir oqibatlarga olib kelishini unutishga hech kimning haqqi yo'q. Zero, ona zamin bitta, uni

**k o ' z  
qorachig'idek  
a s r a s h  
barchaning  
burchidir.**

Mana endi mezonga kelsak - burch va mas'uliyat mezoni,adolat va haqiqat mezoni, zamin va zamон mezoni, muhabbat va sadoqat mezoni, diyonat va vafo mezoni, iroda va



holatlarni o'chaydi, baholaydi. Bu yaratganning irodasi, qudrati, muruvvati tufayli

*Bo'sh vaqtim - xush vaqtim*

Yurtboshimiz «Savob ishni har kuni, har kim qilishi kerak» deb bejiz aytmaganlar. Atrofdagilarga mehr- muruvvat ko'rsatish katta savobdir. Ayniqsa, ko'ngli yarim, mehrga tashna insonlarga

joylashgan so'limgina «Mehrijon» oromgohida dam olishyapti.

O'n yetti yoshgacha bo'lgan 135 nafar bolajonlar uchun «Mehrijon»da barcha sharoitlar yaratib berilgan. Viloyat, tuman

*Prezident asarlarini o'rjanamiz*

**MILLY ISTIQLOL G'OYASI:  
ASOSIY TUSHUNCHА  
VA TAMOYILLAR**

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

**2. Taraqqiyotning o'zbek modeli**

O'zbekiston — ulkan imkoniyatlar mamlakati. Bu zaminda tabiiy boyliklar, unumdar yer, qudratli iqtisodiy va ilmiy- texnikaviy, insoniy va ma'naviy salohiyat mavjud. Eng muhimi, bu diyorda mehnatsevar va iste'dodli xalq yashaydi.

O'zbekiston — o'ziga xos mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlab olgan davlat. Bu yo'l — jahonda o'zbek modeli deb tan olingan rivojlanish yo'lidir. Uning ratsional mag'zi jamiatni inqilobiy tarzda emas, balki evolyutsion — tadrijiy ravishda isloh etishni nazarda tutadi.

Istiqlolning dastlabki yillarida Prezident Islom Karimov rahbarligida islohotlar strategiyasi ishlab chiqildi. Bunda taraqqiy topgan mamlakatlarning bozor munosabatlariga o'tish tajribasi, mamlakatimiz boshdan kechirgan tarixiy sinovlar va ularning saboqlari, xalqimizning turmush va tafakkur tarzi asos qilib olindi. Shu tariqa yurtboshimiz tomonidan jamiatni isloh etishning chuqur ilmiy asoslangan quyidagi mashhur besh tamoyili vujudga keldi:

**Birinchi tamoyil.** Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi. Iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, u biror mafkuraga bo'ysundirilishi mumkin emas. Ichki va tashqi iqtisodiy munosabatlar mafkuradan xoli bo'lishi lozim.

**Ikkinchi tamoyil.** Davlat — bosh islohotchi. U islohotlarning ustuvor yo'naliishlarini belgilab berishi, yangilanish va o'zgarishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan amalga oshirishi lozim.


**Uchinchi tamoyil.** Jamiat hayotining barcha sohalarida qonunning ustuvorligi. Demokratik yo'l bilan qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarni hech istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga og'ishmay riosa etishi lozim.

(Davomi bor.)

## "MEHRIJON" DA YANA BIR TADBIR

muruvvat  
ko'rsatish  
undanda katta  
savobdir.

Namangan viloyatidagi 26- Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilariga ko'rsatilayotgan e'tibor ana shu savob ishlar sarasiga kiradi. Ayni kunlarda



### ONAJON

Bu kun sizni eslab yig'ladim,  
Mehringizni qo'msab yig'ladim,  
Dardimni she'r aylab yig'ladim,  
Onajonim qaylardasiz-ey.

Qaldirg'ochlar ketdilar tashlab,  
Kelaman deb, onangni boshlab,  
Nochor kutdim ko'zlarim yoshlab,  
Onajonim qaylardasiz-ey.

Sizning kabi ayolni ko'rsam,  
Deyman: bir bor qo'lini o'psam,  
Cho'kib borar kun sayin jussam,  
Onajonim qaylardasiz-ey.

**Muborak AHMEDOVA,**  
**Namangan viloyatidagi**  
**26- Mehribonlik uyi**  
**tarbiyalanuvchisi.**

ushbu mehribonlik uyi  
tarbiyalanuvchilari Chust  
tumanidagi G'ova qishlog'ida

hokimligidagi mutasaddi  
rahbarlar oromgohga tashrif  
buyurib, ular bilan birgalikda  
ko'plab tadbirlar,  
musobaqalar uyushtirdilar.

Yaqinda «Sog'lom avlod  
uchun» jamg'armasining  
viloyat filiali direktori Ozoda  
Usmonova boshliq bir guruh  
tuman, viloyat vakillari ham  
oromgohda bo'ldilar. Bolalar  
bilan yaqindan tanishib, o'z  
sovg'alarini topshirdilar.

O'z navbatida bolajonlar  
ham chiroyli raqslari, qunnoq  
qo'shiqlari bilan yig'ilganlarni  
xushnud qildilar. Ayniqsa, besh  
yoshli Islomjon va 8 - sind  
o'quvchisi Muborak  
Ahmedovalarning ona haqidagi  
she'ri yoshu keksani  
to'lqinlantirib yubordi.

Darhaqiqat, mehrga tashna  
bolajonlarga qancha mehr bersak,  
shuncha oz.

*Burxon JALIL.*

## ZIYORAT UCHUN SAYOHAT

Ta'til bahonasi sabab Umida Murodova rahbarligidagi 2-Huquq va iqtisod asoslari litsey-internatining o'qituvchi va biz - o'quvchilari qadimi Samarqand bo'y lab sayohatga bordik. Dastlab Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy maqbarasini ziyorat qildik. Ismoil al-Buxoriyning 90 nafar ustozlari va 1000 dan ziyod shogirdlari bo'lgan ekan. Bizgacha 20dan ortiq asarlari, jumladan «Al-jami' as-sahih», «At-tarix» singari ulkan va boy merosi yetib kelgan. U kishining «Men ilmni xor qilmayman, kimga ilm kerak bo'lsa o'zi kelsin» degan so'zleri bizga kuchli ta'sir qildi.

Yana biz Amir Temur qurdirgan binolar qarshisida bamisol jonli tarix bilan yuzma-yuz turgandek his qildik o'zimizni. Go'ri Amir, Registon maydoni, ya'ni Sherdor, Tillakori, Bibixonim singari me'moriy obidalar lol qoldiradi kishini. Tarixdan so'zlovchi obidalar bizda cheksiz g'urur va iftixon tuyg'usini junbushga keltirdi.

*Dilnavoz BERDIYEVA,  
Qashqadaryo viloyati, Shaxrisabz  
shahri, Miraki shaharchasidagi 2-litsey-  
internatining 9-sinf o'quvchisi.*

## AYYOMINGIZ MUBORAK, USTOZI

Uyda o'tiraverib juda zerikib ketdim. So'ng do'stlarim bilan qachon uchrashar ekanman deb, taqvimga nazar tashladim. Iye, bugun axir ustozimiz Dildora opa Ibragimovaning tug'ilgan kunlari-ku. Sal bo'lmasa yodimdan ko'tarilay debdi-ya...

Shunda menda ajoyib bir fikr tug'ildi. Qo'limga ilk bor qalam tutqazgan, onamizdek mehribon va aziz ustozimni sevimli gazetam bo'lmish «Tong yulduzi» orqali

tabriklash niyatida qo'limga qog'oz, qalam oldim-da, quyidagilarni qoraladim: Aziz Dildora opa, qutlug' 40 yoshingiz muborak bo'lsin. Yosh avlodni tarbiyalashdek mashaqqatli, shu bilan birga o'ta sharaflı ishingizda omad sizga yor bo'lsin. Mana bu she'rimni sizga bag'ishladim:

**Qo'llarimga berib qalamni,  
Tanitdingiz atrof-olamni,  
Anglatdingiz yaxshi-yomonni,  
O'rgatdingiz ilmu odobni.**

**Deysiz doim omon bo'lingiz,  
Sog'lom o'sib, kuchga to'lingiz.  
Unutmaymiz so'zlarizingizni,  
Mehr to'la ko'zlarizingizni.**

*Mahmudjon AZIMOV,  
Shayxontohur tumanidagi  
169- maktabning  
6 - sinfo'quvchisi.*

## XATLAR TEGLIRMONI



da», deb javob qaytardi. Bu yoshida maktabni javobdan esankirab qoldim. Keyin unga o'zimning bitirishyapti. Axir undaylardan qayerimiz kam? rejalarim haqida gapirib Darsliklardan tashqari so'z berdim.

-Men o'quv yili davomida


maktabni yoshida bitirishyapti. Axir undaylardan qayerimiz kam? Darsliklardan tashqari so'z boyligimiz o'sishi uchun, fikrlash doiramiz kengayishi

## ILMDA UZILISH BO'LMAYDI

o'tilgan fanlarni mustahkamlab, keyingi sinf kitoblarini mutolaa qilyapman. Ayniqsa, ingliz tilini o'rganishga mo'ljallangan kitoblarim bir talay. Keyingi o'quv yiliga mustahkam poydevor yaratish uchun ta'tilda ham goho-goho o'qib, o'rganib turish lozim. Shunday tengqurlarimiz borki, ular ta'til mobaynida yangi sinf darsliklarini o'zlashtirib, o'quv yilidan bitta sinfga sakrab, 15

uchun badiiy kitoblar ham o'qishimiz darkor. Sunnatilla Anorboyeving «To'rtko'zning boshidan kechirganlari» asarini yaqinda o'qib tugatdim. Juda ham qiziqarli ekan. Bu kitobni sizlarga ham o'qishni maslahat beraman.

*Yayra ADINAYEVA,  
Toshkent viloyati,  
Ohangaron tumanidagi  
12-o'rta maktabning  
7- «A» sinfo'quvchisi.*



Yaqinda bir sinfdoshimni uchratib, undan ta'tilni qanday o'tkazayotgani haqida so'radim. U «Ta'tilda nima ham qillardim, o'yin-kulgu bilan o'tkazyapman-

## TA'TILDAN UNUMLI FOYDALANING

Yoz - hunar o'rganishga soz ekan. Sinfdosha dugonalarim Gulnoza, Kamola, Feruzalar bilan SHQTM majmuasida joylashgan tikish-bichish to'garagiga qatnashyapman. To'garak rahbarimiz Mukarram Ahrorovadan chevarlik sirlarini o'rganib kelyapmiz. Hozirda qo'limiz ancha kelishib qoldi. Uksingillarimizga ko'ylakchalar ham tikib beryapmiz. Ayniqsa, oyijonlarimizni quvonganlarini aytmaysizmi. Ustozimiz Mukarram opadan behad minnatdor bo'lishyapti. Eng muhimi, to'garakda yangi-yangi dugonalar orttiryapmiz. Bo'sh vaqtim unumli hamda maroqli o'tayotganidan xursandman.

*Munisa AVAZOVA,  
Toshkentdag'i  
85 - maktabning  
6 - «A» sinfo'quvchisi.*



quvonch meni yana hayotga qaytardi. Yo'qotish, qoqilish ila orzu-umidlarim singan bu hayotda yana yangi ilinj- umid kurtak yoza boshladi. Ana shu kurtaklarga yam-yashil novda bo'lishimga ishonch berdi.

Qo'limga qalam olib, qoralagan she'rlarimni oqqa ko'chirishga ahd qildim. Ularni ustoz adiblarga

## NISH URAYOTGAN KURTAK

Gazeta sahifalarida she'rlarimni ko'rdimu tahririyatga o'z minnatdorchiligidagi qanday izhor qilishni bilolmay qoldim. O'sha kungi ko'rsatib, keljakda sizlarning e'tiboringizga havola qilaman.

*Gulnora MAJIDOVA,  
Qashqadaryo viloyati,  
Qarshi shahri.*

## «FIZZAMDA KASHFA»

Insonning ichki go'zalligini matodagi nafis gullar so'zlaydi, ipaklar tilga kirib, ma'no aks ettiradi. Ha, bu kashtadir. Zardevor, palak, qiyiqlarning go'zalligi nimada? Nima uchun ularning narxi jahon bozorida otinga teng? Milliy hunarmandchiligidagi ahamiyati beqiyosligini bilamizmi?

Afsuski barchamiz emas. Aksariyat qizlar hatto tikishni ham bilmaydi. Qadimda esa qizlar sarposining orasida o'z qo'li bilan tikkan palaklari bo'lishi shart bo'lgan ekan.

Men kashta tikishni biladigan ikki ayol bilan suhbatda bo'lganimda, ular o'z mehnatlari mahsulini namoyish qilib, gapga o'rin ham qoldirmadilar. Maktabda o'qituvchi bo'lib ishlaydigan Chinora opa Abdullayeva va uy bekasi Adiba opa Komilovalar o'z dil tug'yonlarini matoda aks ettirgan ekanlar. Rang-barang ipaklar bejirim gullarga aylangan, naqshinkor hoshiyalar uzluksizlikni ifoda qilgan palaklarni tasvirlashga til ojiz. Qo'l mehnati o'laroq yuzaga keladigan buyum qadriligi bilan ham qimmatlidir.

*Hilola ABDURAZZOQOVA*

quvonch meni yana hayotga qaytardi. Yo'qotish, qoqilish ila orzu-umidlarim singan bu hayotda yana yangi ilinj- umid kurtak yoza boshladi. Ana shu kurtaklarga yam-yashil novda bo'lishimga ishonch berdi.

Qo'limga qalam olib, qoralagan she'rlarimni oqqa ko'chirishga ahd qildim. Ularni ustoz adiblarga

## SINOVLAR OLDINDA

Shu kunlarda oliy o'quv yurtlariga, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari kirish uchun test sinovlaridan o'tayotgan abituriyentlarning hayajonlari cheksiz. Dugonalarim Gulchehra va Zilolalar ham o'qishga kirish harakatida. Gulchehra hamshira bo'lmoqchi. Shuning uchun Y. Oxunboboyev nomli tibbiyot bilim yurti qoshida ochilgan litseyga o'z hujjatlarini topshirdi. Zilola esa iqtisodchi bo'lish niyatida.

Maktabda o'tilgan mavzularni takror-takror o'qiyotgan, qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib, bilimlarini mustahkamlayotgan dugonalarimga omad tilayman.

*Malika ABDUVOHIDOVA,  
Yunusobod tumanidagi K. Yormatov nomli  
12 - maktabning 8 - sinf o'quvchisi.*

## GO'YOKI MENGA ATALGANDAY

Yoshlar gazetasini yoshlarga ataladi-da, dersiz. Xuddi shunday. Men kabi o'zi uchun biror narsa olgan mushtariy gazetani ham borgan sari yaxshi ko'rib qolaversa kerak. Tengdoshlarim ijodi, ya'ni she'rlar, hikoyalari, maqolalarni o'qiyanu qog'oz-qalamga oshiqaman. Dilimdan to'kilayotgan tuyg'ularni shosha-pisha qoralayman. Bir ilhomimga ming ilhom qo'shilib, go'zal she'rlar binoga keladi. Aziz tengdoshlar, o'qib, fikringizni bildirasiz, degan umiddaman.

## LOLA

Yo'l chetida bir dona lola,  
Ochilibdi qip-qizil bo'lib.  
O'zi kichik, yoqut piyola,  
Juda go'zal chiroyga to'lib.

Go'zalligin u etib ko'z-ko'z,  
Tebranardi bir-bir chayqalib.  
Ta'rifica hatto til ojiz,  
Hamma boqar unga zavqlanib.

Shunda uni yerdan bexosdan,  
Uzib oldi beshafqat bir qo'l.  
Barmog'i-la ezg'ilab uni,  
Davom etdi, olis edi yo'l.

Havo issiq, xazon bo'ldi u,  
Beshafqat bir inson qo'lida.  
Yo'l chetiga otib lolani,  
Inson davom etdi yo'lida.

Yerga tushdi u mag'rur bebosh,  
Astagina yerga qo'ydi bosh.  
G'amga to'lib, ko'ngli o'rtanib,  
Yig'lar edi yonog'ida yosh.

*Gulruh XUDOYBERDIYEVA,  
Navoiy viloyati, Navoiy tumanidagi  
9-o'rta maktab o'quvchisi.*

*Sog' yurak - tog' yurak*

toblanish yaxshi, biroq me'yori bilan. Chunki «oftob urib» xastalikka chalinib qolish ham hech gapmas. Ayajonim bunday hollarda darrov chillaki suvdan ichish yoki chillaki uzum bargini ariqdagi muzdek suvga botirib turib, bosh va yelkaga mo'ljallangan maxsus kiyimlar bilan kirgizilarkan. Kirish pullik. A v v a l i g a «n a m u n c h a qimmat ekan» deb o'yladik. Keyin u yerdag'i tartib va intizomni ko'rib, «arziydi» dedik. Chunki tozalikka rioya qilinib, suvning musaffoligi



favorolar mijozlar uchun xizmatda ekan. Undan

**SUZHISHNI BILASIZMI?**

Albatta, suzhish deganimda suvdagi erkin harakatni nazarda tutyapman. Yana «ovqatni suzhish», «shox bilan suzhish», «ko'zini suzhish» degan ma'nolarni tushunib yurmang. Shu o'rinda bu so'zning omonimlik xususiyatini ham eslab o'tdik. Darvoqe, suvda muvozanatni saqlab suzhishing ham ko'p turlari mavjud. Biz bolalar hech bo'lmaganda bittasini bilishimiz darkor.

Men suzhishni Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan yopiq hovuz (b a s s e y n) da o'rganganman. U qishin-yozin ishlab turganligi bois, har haftaning dam olish kunlari boraman. Bu yilgi ta'tildan boshlab esa sayoz, lekin oqava suv - «Svetlyak»da do'stlarim Ziyovuddin, Jasur, Xurshid, Umidlar bilan birga cho'milyapmiz, oftobda toblanyapmiz.


Saratonning oftobida



qo'yish lozimligini doimo uqtiradilar. Chillaki suvni qayerdan topish lozimligini bilasizmi, men bilaman. Agar qishning chillasida yoqqan qordan shisha idishlarga olib qo'yagan bo'lsangiz, katta supermarketlardan xarid qilishingiz ham mumkin.

Yaqinda tog'am, kelinoyim va jiyanim Humoyun bilan shahrimizning qoq markazida joylashgan «Aqua» bog'iga bordik. U yerga cho'milish uchun

tashqari, tibbiy yordam ko'rsatish xonalari, dam olish o'rindiqlarining ozodaligini aytmaysizmi. Suvda vaqt juda tez o'tadi-da. Hash-pash deguncha uch soat ham o'tibdi. Miriqib dam olib, o'zimizni «qushdek yengil» sezib uyg'a qaytdik. Ha, aytgancha, foto apparatimda jiyanimni suratga olgandim. Suratlar ham ajoyib chiqibdi-da, nima dedingiz?



qattiq nazoratda bo'larkan. Turli o'yinlar, sirg'anib tushadigan tramplinlar va

*Behzod IKROMOV,  
Ijtimoiy yo'naliшdagи  
Respublika maxsus  
gimnaziyasi o'quvchisi.*

## SENI SOG'INDIM, DO'STIM!

Mana, yozgi ta'tilning ham yarmidan ko'pi o'tib bo'ldi. Maktabga chiqishimizga ham ozgina vaqt qoldi. Sinfoshlarimni, ochig'i juda ham sog'indim. Ayniqsa yaqin do'stim Umidni. Uni anchadan beri ko'rmadim. O'qishning oxirgi kunlari uni bir oz ranjitiq qo'ygan edim. Meni kechirganmikan? Aslida ayb menda bo'lgan edi. O'sha kuni ertalabdan kayfiyatim yaxshi bo'lmagani bois boshqa sinfdoshlarimning oddiy hazillarini ham chinga olib, urushib ketaverdim. Menga «Senga nima bo'ldi, Botir? Bugun chap yoning bilan turib keldingmi?», degan edi, u bilan ham urushib ketdim. Unga hatto qo'pol so'zlar ham gapirib yuborganimni sezmay qoldim. Uhar yozda buvisinikiga ketadi. U bilan xayrlashishga ham bormadim. Hozir hamma sinfdoshlarim yonimda. Lekin yaqin do'stim bo'lgani uchunni, uning o'rni baribir boshqacha edi-da. Agar qaytib kelsa, birinchi o'zim ko'rgani boraman. Undan kechirim so'rayman. Ishonaman, u meni kechiradi. U ham men kabi «Tong yulduzi»ni sevib o'qidi. U qayerda bo'lsa, gazeta ham yonida bo'ladi. Buvisining uyida ham gazetani har bir sonini olayotgan bo'lsa kerak. Shu sababli o'z gazetam orqali undan kechirim so'rashga qaror qildim.

Umid, seni juda sog'indim. Iltimos, meni kechir.

**BOTIR.**

Mahallamizdag'i qizlar bilan ta'til kunlari bo'lgani uchun har kuni ko'chada turli xil o'yinlar o'ynab kunimiz o'tmoqda. Bizning shovqinimizdan hamma bezor. Tinchgina o'ynasak ham mayliya, o'tgan-ketganni ham tinch qo'ymaydigan bo'lib qolgandik. Mahallaga o'zimiz tengi biror begona qiz yoki bola oraladimi, tamom. Har kuni qarindoshinikiga o'tib yuradigan kichkinagini qizchani-yu o'z xoliga qo'ymaslik. Bechora biz o'ynayotganimizni ko'rsa boshqa ko'chaga o'tib ketardi. Biz esa uni qo'rqaq, bizdan qo'rqi deb masxara qilardik. Do'st-dugonalarim orasida kattasi men bo'lganim uchunni, katta yoshlilar ko'proq menga nasihat qilishar, men esa «xo'p bo'ladi» deb o'z bilganimdan qolmasdim.

Bir kuni bir-ikkita qizlar bilan dugonamiz Shahnozaning xolasini

## YOLG'ON SO'ZGA ISHONIBMAN

Men endigina 9 - sinfga o'tdim. Ko'plar 15-16 yoshda sevgi muhabbatga hali erta deyishadi. Men bu so'zlarga ilgari parvo qilmasdim. Bizdan bir sinf yuqori o'qiydigan Nodir menga sevgi izhor qilganda ochig'i dovdirab qoldim. Hali yoshman-ku, sevgiga nima bor demasdan u bilan gaplashib yura boshladim. Sinfagi bolalar u yoqda tursin, qizlarning ham menga nisbatan muomalasi o'zgarib qoldi. Men hech nima bilmaganday yuraverdim. Lekin bir kuni Nodir menga umuman sevmasligini, sinamoqchiligin, shunchaki yurganini gap orasida aytib qoldi. O'sha vaqtgagi ahvolimni ko'rsangiz edi. Umuman o'g'il bolalarni hammasini yomon ko'rib qoldim...

Kunlar o'tib, Nodir kechirim so'rab keldi. Har kuni yalinib, meni kechir, deydi. Nima qilishni ham bilmay qoldim. Uni kechirsam to'g'ri ish qilgan bo'lamanmi? Yoki yana xato qilib qo'yamanmi? Siz nima deysiz, qizlar?

**DILDORA.**

uyiga bormoqchi bo'ldik. Ularning katta bog'i bo'lib, u yerda turli xil mevalar pishib yetilgani uchun Shahnoza bizni taklif qildi. Xolasini uyi uncha uzoq emas, bizdan 4-5 ko'cha narida ekan. Gaplashib ketayotgan edik, birdan ko'zimiz doim ko'chamizdan o'tganda

qarab turardi. Nima qilishni bilmay, ular tarafga yura boshladik. Shunda uning akasi va opasi yo'limizni kesib chiqib, singillarini bundan buyon tinch qo'yishimizni so'radi. Agar yana bir marta yaqinlashsak «boshqacha» gaplashishlarini eslatib qo'yishdi.

Biz indamay yo'limizda davom etdik.

Boshqa qizlarni bilmadim-u menga bu voqeja juda qattiq ta'sir qildi. Birinchi

marta shu holatga tushganim uchun bo'lsa kerak... Hozir ancha o'zgaganman. Endi hech kimni yo'lini to'smayman, o'tgan-ketganga tegmayman. Lekin u qizdan kechirim so'ramoqchiman. Anchadan beri ko'chamizdan o'tmay qoldi. Agar o'tib qolsa, to'xtatib bo'lsa ham uzr so'rayman. Balki meni kechirar...

**NARGIZA.**

## ENDI BUNDAY QILMAYMIZ

t i n c h  
qo'ymaydigan qizchaga tushdi. U ham bizni ko'rni-yu yonidagi dugonalariga nimadir dedi va uyga yugurib kirib ketdi. Uyiga opasi va akasini chaqirib chiqish uchun kirgan ekan. Dugonalar, aka-opasi bizni kutib turishar, biz esa ularning niyatlarini bilganimiz uchun ham nima qilishni bilmay yo'lda to'xtab qolgan edik.

-Kelinglar, nega to'xtadinglar. Yo mendan qo'rqiapsizlarmi? - deb u qizcha bizga kulimsirab

Sahifani Ma'suda ABDUQODIR qizi va  
O'zDJTU xalqaro jurnalistika fakulteti talabasi  
Nilifar ABDURAHMONOVA lar tayyorlashdi.





# QOVOQVOYNING

(2 pardali, 7 ko 'rinishli ertak. Yangi varianti.)

**(Davomi. Boshi o'tgan sonda.)**

**Ko'sak qurti:**  
Avval sal nari yurgin,  
Endi-chi, salom bergin.

**Qovoqvoy:**  
Kimga beraman salom?  
Kallang ekan rosa xom.

**Ko'sak qurti:**  
Tag'in xiyol nari bor,  
Salom bergin-chi bir bor.  
To'g'riga qarab.

**Qovoqvoy:**  
Salom!

**O'rgimchakkana:**  
Vaalaykum assalom.  
(Chiroq yonib to'r orasida allaqanday bashara ko'rindi).  
Qovoqvoy alanglaydi, qo'rqa boshlaydi).

**Chigirtka:**  
Qo'rma unchalik, Qovoq,  
Ul-bul desalar biroq,  
Gap qaytarmay degin ho'p.

**Qovoqvoy:**  
Yoz chog'ida ishim ko'p.

**O'rgimchakkana:**  
Nima deyapti o'zi,  
Eshitilmaydi so'zi.

**Chigirtka:**  
Ishlari bormish bir oz.  
**O'rgimchakkana:**  
U holda bo'libdi soz,  
Qani yoqilsin chiroq,  
Gaplasinglar yaxshiroq.

Avval o'ynab-kuldiring,  
Keyin gapga ko'ndiring.

(Chiroqlar yonib, atrof ravshanlashadi.  
Hammayoq)

ko'rindi. Allaqanday muzika chalinadi. Chigirtka sakraydi. Ko'sak qurti buralib-buralib o'yinga tushadi. Ular Qovoqvoyni ham o'yinga tortishadi).

**O'rgimchakkana:**  
O'ynanglar ho, o'ynanglar,  
Aytganimni o'ylanglar.

**Ko'pchilik:**  
Kel, Qovoqvoy o'ynaymiz,  
Seni qo'ldan qo'yaymiz.

(Shu paytda  
Qovoqvoy o'yinga aralasholmay,  
atrofga alanglab qochishni  
mo'ljallab turadi.  
Uni yana o'yinga tortishadi).

**Qovoqvoy:**  
O'ynamayman,  
ketaman,  
Bu yerlarda netaman.

Qidirib qolar oyim.

**O'rgimchakkana:**  
(Ko'sak qurtini yoniga chaqirib)

Gapirgin-chi muloyim,  
Qaranglar sal ko'ngliga.  
Ul-bul bering qo'liga,  
Yomon bo'lmoqda afti.

**Qovoqvoy:**  
Yig'lagim kelayapti.  
(«Voy, oyi, voy oyi» deb beo 'xshov yig'lay boshlaydi.

O'yinni to'xtatishib, uni ovutishga kirishadilar.  
**O'rgimchakkana to'r yopinib o'yinga tushadi).**

**O'rgimchakkana:**  
O'yna, o'yna, Qovoqvoy,  
Bu yer juda yaxshi joy.

(Qovoqvoy o'ynamaydi.)

**Ko'sak qurti:**  
Egmayapti bo'ynini.

**O'rgimchakkana:**  
To'xtatinglar o'yinni.  
(Qovoqvoyni chuqr

yoniga keltirishadi.)

Ko'rdingmi ana chuqur,  
Ichini yaxshilab ko'r!  
Tagida yotar ajdar,  
So'zga kirmasang agar -  
Ishimizni boshlaymiz,  
Seni g'orga tashlaymiz.  
Tushib qolsang-chi g'orga,  
O'lajaksan bekorga.

**Qovoqvoy:**

Nima istaysiz mendan?

**O'rgimchakkana:**  
So'rab turmaymiz sendan,  
Berajakmiz topshiriq.



**Chigirtka:**

(Astagina.)  
Topshiriq — juda qiziq,  
Biz yoursak-chi, dalada  
Hatto pana-panada —  
Darrov ko'rib qolishar,  
Rosa quvib solishar.

**Ko'sak qurti:**

Bir ishda bersang yordam,  
Soz bo'ladi judayam.  
Sen ham xursand bo'lasan  
Doim o'ynab kulasan.

**O'rgimchakkana:**

Gapni ko'p aylantirmay,  
Hadeb aljirayvermay  
Keltir uni hoziroq,  
Tanishib qo'ysin Qovoq.  
(Tezlikda Ko'sak qurti o'ralgan xaltachani olib keladi).

**Ko'sak qurti:**

Mana shudir bor-yo'g'i,  
Hasharotlar urug'i.

**Chigirtka:**

Ola qol, kel, ola qol,  
Ishing bitadi darhol.  
O'zingni bo'shatamiz,

Uyingga kuzatamiz.

**O'rgimchakkana:**  
Qilma aslo iltimos,  
Buyruq deb, ukdir, vosvos!

(Qo'rqqanidan Qovoqvoy xaltachani qo'liga oladi).

**Qovoqvoy:**  
Voy-bu, uning ichida  
Nima bor, sassiq juda...

**Ko'sak qurti:**  
Dalada-chi, sekin och,  
Atrofga soch.  
Tezda qoch!

**Qovoqvoy:**  
Izimdan chopishmas-mi?  
O'zimga yopishmasmi?

**Chigirtka:**  
Hali ular kichkina,  
Senga qilmas hech nima.

**O'rgimchakkana:**  
Yaxshilikcha ho'p degin,  
Xursand bo'lasan keyin.

**Ko'sak qurti:**  
Kimni sen yomon ko'rsang,

Holini qilasan tang.

**Qovoqvoy:**  
Sochsam qutilamanmi?  
Yoki tutilamanmi?

**Ko'sak qurti:**  
Qutilasan, ketasan,  
O'z uyingga yetasan.

**O'rgimchakkana:**  
Esingdan chiqib qolsa,  
Biror joyda yo'qolsa,  
Javob berarsan o'zing,  
O'yib olinar ko'zing!

**Qovoqvoy:**  
Esimda qolmas sira,  
Ko'zim ham bir oz xira.

**Ko'sak qurti:**  
Shiralik yegin ko'proq,  
Esingda qolar uzoq.

**O'rgimchakkana:**  
Qani ishga tezroq bor,  
Esingdan chiqmasin g'or!

**Qovoqvoy:**  
(Tomoshabinlarga qarab.)  
Bolalar nima qilay,  
Qay biri menga qulay?

# SARGUZASHTI

Po'lat MO'MIN

Qochsam tutishar darrov,  
Qovoqligim bo'lar g'ov.  
Saqlash uchun jonomni,  
Hech kim olmas yonimni.  
Olaymi yo olmaymi?  
(*O'ylaydi.*)

Nima desangiz mayli...  
O'ylab ko'ray bir o'zim,  
Zora ishlasa esim.  
Aqlim ishlaganda sal,  
Bo'lmasdim bunga o'sal.  
Har holda ola qolay,  
Qutilsam bas, har qolay.  
(*Sharitta hasharotlar yoniga kelib.*)

Mayli beringlar dangal.

**Ko'sak qurti:**

Mana, ishing bo'ldi hal.

**O'rgimchakkana:**

Qani tez kuzatinglar,  
Yanglishsa, tuzatinglar!

(*Hasharotlar unga quilluq qilishadi. Xaltachani Qovoqvoyning beliga bog'lab qo'yishadi.*  
*Shundan keyin uning ko'zini ham bog'lashadi-da, olib chiqishadi.*)

**(PARDA)**

**UCHINCHIKO'RINISH**

(*Qovoqvoylarning uyi.*

*Qovoq shaklidagi uyning tomi. Qovoq yaprog'idan eshigi. Har bir buyum Qovoqqa tegishli. Qovoqvo o'ziga o'xshagan to'pni o'ynab yuribdi. To'pi ham Qovoq shaklida. Unga ip boy'lab olgan bo'ladi. To'p o'ynab, qo'shiq aytadi.*

**Qovoqvo:**

To'pim to'p-to'p,  
Qochma ko'p-ko'p.  
Nima desam,  
Degin ho'p-ho'p.  
Yuzlaringdan  
O'pay cho'p-cho'p.  
(*Takrorlaydi.*)  
Ey, bolalar qolay  
qo'shig'im yoqdimi?  
Uni o'zim to'qidim.  
(*Gerdaiyib.*)



Bo'lmoqchiman men shoir,  
Kitob yozaman,  
Qovoqqa doir.  
Bir pasda she'r to'qiymen,  
Uni yozmay o'qiymen.

Buni menga Po'lat Mo'min bobom o'rgatgan,  
Qalbimga ilhom o'rnatgan.  
«Odob va oftob» degan she'rlarini o'zgartirib,  
«Oftob va koptok» she'r yozganman.

Oftob tepada,  
Koptokni tepaman.

**Qoyilmi?**

Men bilan futbol o'ynaysizmi?

(*Bolalarga to'pni tepadi. Qaytib kelib to'p boshiga tegadi.*)

Voy-voy boshim,  
voy boshim,

Yorildimi yo qoshim!  
(*Qoshini paypaslab ko'radi.*)

Uncha tegmabdi yomon,  
Hozircha boshim omon.  
Bu o'yin ham foydasiz,  
Ey, oyijon, qaydasiz?

Kelayapti yig'lagim,  
Voy oyi, xoy oyi.  
**Qovoq xola:**  
(*Yugurib chiqib.*)


Toychog'im,  
Ovunchog'im,  
Nima deysan do'mbog'im,  
Nima yeysan qovog'im?

**Qovoqvo:**  
Koptok tegdi boshimga,  
Shu sabab ko'z yoshimga.

**Qovoq xola:**

Qo'y, yig'lama yolg'izim,  
Ham o'g'limsan,  
ham qizim.

**Qovoqvo:**  
Kerakmas,  
qiz emasman!  
**Qovoq xola:**



Mayli boshqa demasman.  
(*Og'ziga qovurilgan qovoq urug'i soladi. Uni tuflab tashlaydi.*)

**Qovoqvo:**

Yemayman qovoq urug',  
Sira uning yog'i yo'q.  
(*Onasi og'ziga konfet soladi.*)

Shirin ekan-ku juda,  
Nimasi bor ichida?  
Uni yesa bo'ladi,  
Rahmat desa bo'ladi.

**Qovoq xola:**

Ichida bor asali,  
Shuning uchun mazali.  
Sendan o'zim o'rgilay,  
Jonim qoqindiq bo'lay,  
O'qiy qolgin kitobing.

**Qovoqvo:**  
Mazam yo'q meni ancha.  
**Qovoq xola:**

Qochgan bo'lsa-chi tobing,  
Bo'lsin o'zing aytgancha.  
Xafa bo'lma jon bolam.


**Qovoqvo:**  
Sira ham yo'q hafsalam,  
Tunov kuni Chanoqvo,  
Masxara qilib, voy-voy,  
«Qovoq sinfdi qoldi,  
Ikki karra uch - olti»  
Degani qildi alam.

**Qovoq xola:**  
Parvo qilma jon bolam,  
Tuzalib ham ketarsan,  
Kelasil yil o'tarsan.  
(*Ketadi.*)

**Qovoqvo:**  
(*O'zicha mashq qilgan bo'ladi.*)

Men shoir bo'lmoqchiman,  
Eng mashhur bo'lmoqchiman.

Qofiyam joyidami?  
Buzmayman qoidani.  
Ikki karra uch — olti,  
Kitob, qalam yo'qoldi.  
Bilib qolibman sal-pal.



(*Sevinib bolalardan so'raydi.*)

Oson-u karrajadval.  
Bilish ekan juda jo'n,  
Uch karra uch bo'lar o'n.

Endi ishlarim qantday  
To'g'ri topdimmi, qalay?  
(*Zaldan noto'g'ri deb aytishadi.*)

Kim u noto'g'ri degan?  
Qofiya bilmas ekan.

(*Ikki qo'lidagi barmoqlarini uchta-uchtadan qilib sanab chiqadi-da, yana yanglishib ketadi, qayta sanaydi, to'qqiz chiqadi.*)

Uchta uch bo'lar to'qqiz,

Qochib qol suzmay ho'kiz.

Menga savol bering-chi,

Topib beray birinchi.

(*Bolalar savolga tutadi, javob berolmaydi, yanglishib ketadi.*)

Boring-ye,  
o'ynamayman,

Charchadim,  
o'ylamayman.

(*Keta boshlaydi, eshik tomondan hassa tayangan Sehrgar qiyofasida chol ko'rindi. Chol avval salom beradi.*)

(*Davomi bor.*)

## ABADIYAT ARDOOLAGAN ALLOMALAR

(Boshi o'tgan sonlarda.)

Leybnits Misrga ekspeditsiya

loyihasini ishlab chiqadi. Bundan ko'zlangan maqsad sofiyosiy ruhda bo'lib, Lyudovik XVI ning diqqat-e tiborini nemis knyazliklaridan chalg'itish edi. Qirol

Bilimim shu yerga yetib keldikim,  
Bilimsizligimni endi tushundim.

Abu Shukur Balxiy

loyihaga qiziqmadidi, ammo oradan 130 yil o'tgach, u Bonapartni qiziqtirib qoldi. Va u aynan Misr yurishida boshqa bir ajoyib matematik Janfuhrent o'ziga hamroh qilib olib ketadi. 26 yoshida Leybnits Parijda paydo bo'ladi. Shu yerda matematik asarlar yaratish uchun eng sermahsul va nisbatan tinch davr boshlanadi.

Kristian Gyugens unga Rene

Dekart, Evanjeliska Gorichelli, Blez Paskal kitoblarini keltirib beradi. Leybnits Londonga safari chog'ida ingliz matematiklari va ular orasida o'zidan atigi uch yarim yosh katta bo'lgan, ammo ustozlikka arziyidigan ser Isaak Nyuton bilan tanishadi. Jikkakkina, uyidan chiqishni xohlamaydigan, o'z olamiga sho'ng'igan ingliz bilan olifta, quvnoq, bironqa o'yin-kulguni qoldirmaydigan, sog'lom, nemis tashqi qiyofadan o'zaro qnchalar farqlanar edi-ya! Biroq ularni umrini bag'ishlagan narsa yagona ilm-fan! Oradan 11 yil o'tgach, ana shu nemis differential hisobga doir asarini chop ettiradi va o'shandan buyon bu sohada kim birinchi bo'lgan: Nyutonmi, Leybnitsmi degan babs-munozara hali-hanuz davom etib keladi. Mutaxassislar — fan tarixchilarining ma'lumotiga qaraganda, differential hisobni N'yuton va undan mustaqil ravishda Leybnits taklif etgan. Integral hisobni esa ikkovlari ishlab chiqarishgan.

Leybnitsning betinim shug'llanishlariga qoyil qolmay iloji yo'q. Ammo shunday dahoning yengiltakliklariga qarab yanada hayratingiz oshadi. Differential hisob muallifi o'z kashfiyoti haqida: «...bu asarimni nashr etishga loyiq deb hisoblamagandim. Buyuk matematikning o'z sohasi haqidagi fikrlari ham shunga o'xshash: «Matematika men uchun ko'ngilochar bir ermak edi». «Og'irlik markazi haqida aniq tushincham yo'q... Endi Dekartning algebrasiga kelsak, menga haddan ziyod qiyin tuyuldi...»

Bu iqrorlar bilan tanishar ekansiz, bu olim qanday qilib «Leybnits qatori»ni kashf etganiga, «funksiya», «koordinatalar», «algoritm» atamalarini muomalaga

*Ushbu ruknni Rustam OBID olib boradi*

kiritganiga, differential va integral hisob belgilarini yaratganiga, zamonaviy hisoblash texnikasining alifbosi -sonlar tasvirining ikkilik tizimini o'ylab topganiga ishongingiz kelmaydi. Bir joyda uzoq vaqt muhim yashay olmaydigan, tinmayin dunyo kezish peshonasiga yozilgan behalovat bu odam hisoblash mashinasini ixtiro qilish va qurishga, taxminiy grafik integrallash uchun zarur mexanizmni tavsiflashga qachon ulgurdi ekan-a?

Xoh ishoning, xoh ishonmang, ulug' matematik, nufuzli, obro'li olim bo'lib yetishganida ham bu odam daydiligidini

## NYUTONGA TENGLASHGAN OLM

qo'ymadi - qo'ymadi. Bir tomonda homiylarining xohish- irodasi, ikkinchi tomondan o'zining beorom tabiatini yana yuvropa bo'ylab yo'lga soldi. Leybnitsdek o'tkir aql-zakovat egasi «Braunshveyglar



xonadoni tarixi»ni yozib borishdek bema'ni bir taklifni qabul qildi-ya? Na mol-dunyoga va na shon-shuhratga zor bo'lmasa axir! U kitobiga material to'plash uchun uch yil sayohat qildi, ammo undan kutilayotgan narsani yozmadni baribir. Pirovard oqibatda olimligi ustun kelib, Yerding o'tmishi, tog', dengiz, okeanlar paydo bo'lishi haqida ajoyib asar yaratdi.

Leybnits Fransiya akademiyasi a'zoligiga saylangach, o'z vatanida ilm-fanni tashkillashtirish to'g'risida o'lay boshlaydi. Berlin akademiyasini yaratish loyihasini tuzib, shu haqda Petr I bilan uzoq suhbatlar quradi.

Rus podshosi uni juda qiziqtirib qolgandi. Ikkovlari Torgau shahridagi shahzoda Aleksey va Sharlottaning to'yi munosabati bilan Leybnits qatnashgan tantanalarda tanishgan. Ana shu va keyingi uchrashuv rus podshohi bilan nemis olimi o'rtasida ijtimoiy hayot, ilm-fan hamda siyosatning xilma-xil

masalalari bo'yicha qizg'in yozishmalar boshlanishiga olib keladi. Masalan, Leybnits shunday deb yozadi: «Torgauda podshoh bilan suhbatlashish sharafiga loyiq bo'ldim, janobi oliylari Yer magnitizmini kuzatishga doir buyruq berish istagidalar». Olim

Buyuk kishilar olmos yanglig' noyob va shu qadar serjilodir.

Sharq naqli

Pyotrga Volga-Don kanali qurish, Osiyo Amerika qit'asi bilan tutash yo tutash emasligini aniqlash maqsadida ekspeditsiya uyuştirish, Rossiya barcha xalqlarning tillariyu shevalarini o'rganishni yo'lga qo'yishni tavsiya qiladi. Pyotr imperiyasida maorifni tashkil etishning mafassal, barcha tafsilotlari pishiq-puxta o'yangan rejasini ishlab chiqadi, qaysi shaharlarda universitetlar ochish zarurligini ko'rsatadi.

Pyotr Peterburg qonun chiqarish komissiyasining kotibi Veber Leybnitsga yo'llagan bir xatida podshoh uni doimo eslab turishi haqida yozadi: «Leybnits hozir qayerda, nimalar bilan mashg'u'l? Gannaverda qolish niyati bormi?»

Gannaverda qolishmish-a?.. Iloj topilganda bu yerda ortiqcha turmasdi. Bezovalta ruh uni yana yo'lga chorlayapti... Leybnits tatarlar mamlakati Sibirning cheksiz hududlari orqali Xitoya sayohat qilish orzusida. Itlar qo'shilgan chanalar ko'z o'ngidan o'tayapti. Ammo nechoraki, podagra degan badbaxt bir dard uni kursiga mixlab qo'ygan. Olim avvallari ham yebichishga unchalik berilmas, ichkilik o'mida suv aralashtirilgan vino ichardi, xolos. Endilikda esa tushlikda yolg'iz sutning o'zi bilan qanoatlanardi. Lekin shomlikda yaxshilab to'yib olgach, oromkursisida o'tirgan joyida yarim tundan oshgandagina ko'zlar yumilardi. Biroq, saharda uyg'onib, yana kitoblariyu qog'ozlariga sho'ng'ib ketadi.

Bir soatdan keyin esa joni uzildi...

Dafn marosimida yolg'iz bir odam — olimning kotibi qatnashdi, xolos. Leybnitsni Neyshtdat cherkovida og'ir tosh plita ostiga dafn etishdi. Ikkinchi jahon urushi yillarda ingliz bombasi cherkovni «aniq mo'ljalga oldi». Xarobalar ostida parchalanib ketgan platonni topishdi. Cherkovni tiklashdi va endilikda uning o'ng qanotida qurilgan yangi daxmaga qisqa qilib «Leybnitsning suyaklari» deb yozib qo'yilgan.



Bu voqeab bo'lib o'tganiga hali ko'p bo'lganicha yo'q. Do'stim Raimjon dadasi bilan tog'da qishlog'imizning qo'ylarini boqishadi. Erta bahorda toqqa chiqib ketishadi-da, kech kuzda qaytib kelishadi va uyma-uy yurib, odamlarning mollarini tarqatishadi. Bir kuni kechqurun Raimjon bizning uyimizga kelib qoldi va dadasini ertaga shaharda ishi borligini, unga poda boqishda yordamlashib turishimni iltimos qildi. Dadam menga ruxsat berdilar. Ikkimiz kech bo'lishiga qaramay, yo'lga tushdik. Otarga yetib borganimizda Raimjonning dadasi Shoqosim aka endi uxlashga yotgan ekanlar. Biz ularni bezovta qilmaslik uchun chayladan ko'rpayostiq olib, yerga joy soldik va mazza qilib toza havoda uxladik. Ertalab bizni Shoqosim aka uyg'otdilar.

-Agar kech qolsam, xavotir olmanglar, otarni anavi qirda boqinglar, qo'shni daraga o'tib ketmasin, u yerga bo'rilar oralagan, -deya otni choptirib ketdilar.

Biz Raimjon bilan ko'zlarimizni ishqalab- ishqalab arang turdik va podani qir tomon haydadik.

Bizning mahallamizda To'raxon aka degan kishi bor. Ularning yozning issiq kunlarida ham yengi uzun ko'yak kiyib, doimo o'zlarini boshqalardan tortib yurishlari menga qiziq tuyulardi. Bir kuni buning sababini dadamdan so'radim. Shunda ular menga bir voqeani aytib berdilar:

Bir kuni To'raxon aka kechqurun ishdan qaytayotganlari da

U yerda yog'ochdan turli narsalar yo'nib o'tirdik. Negadir kech bo'lmasdi. Raimjon bilan nima qilishni bilmay, oxiri koptok tepishga tushdik. Biz o'yin bilan ovora

deya Qoplanni ergashtirib, o'sha tomonga yugurdim. Qo'ylarning biri butazorga yaqinlashib qolgandi. Qattiq irillagan ovoz keldiyu bo'ri qo'yga tashlandi. Men

o'tib olmoqchi bo'lardimu lekin o'ta olmasdim. Bizni oramizni olishayotgan itlar to'sib turardi. Chang-to'zon orasida Qoplanni panjaları orasida g'ijimlanayotgan

bo'rini ko'rib qoldim. Birdaniga hammayoq tinchib qoldi. Endi og'riqdan g'inshiyotgan itning ovozi kelardi. Qarasam, Bo'ynoqning panjalaridan qon oqib turardi. Qoplon esa bo'rilarni butazorga quvib ketgandi. Raimjon yugurib kelib, Bo'ynoqni ko'tarib oldi. G'ira-shira bo'lganida Shoqosim aka kelib qoldilar. Biz otarni qo'raga haydab kirgazganimizdan keyin Bo'ynoqni yaralarini

b o g ' l a d i k .

Yaxshiyamki,  
Q o p l o n g a  
hech narsa  
q i l m a b d i .

Xullas, bo'rilar  
bilan bo'lgan  
olishuv shu alfovza

tugadi. Biz yaralangan qo'yni egasining uyiga tashlab, nima bo'lganini aytib, tushuntirdik. Bu biz uchun unutilmas voqeab o'ldi.

*Sobir NE'MATOV,*

*Parkent tumanidagi*

*So'qoq qishlog'i.*

## BO'RILAR BILAN OLIŞHUV

bo'lib ketibmiz, qarasak,




to 'rtta  
qo'y otardan ajrab,  
qo'shni darada o'tlab  
yuribdi. Raimjon podani  
menga tashlab, o'zi  
Bo'ynoq nomli iti bilan  
qo'shni daraga yugurdi.  
Undan hurkkan qo'ylar yana  
dara tomon qocha boshlashdi.  
Quyosh botay deb turgandi.  
Shu payt butazorlar orasidan  
bir nima lip etib o'tdi. Men  
ovoziimning boricha «Bo'ri,  
bo'ri» deb baqira boshladim.  
Lekin Raimjon gaplarimni  
eshitmay, qo'ylarga qarab  
yugurardi. Bu orada butazor  
orasida yana ikkita bo'ri  
paydo bo'ldi. Yuragimni  
hovuchlab, nima bo'lsa bo'ldi,

Raimjonga, u yerga  
yaqinlashma, bo'ri nimtalab  
tashlaydi, dedim. Lekin u  
tayog'i bilan bo'rini  
qo'rqtmoqchi bo'lib, u  
yoqdan bu yoqqa silkitardi.

Itlar bezovta bo'lib,  
tinmay vovullahar,  
qon to'la ko'zlarini  
butazor tomon tikib  
turishardi. Birdan

butazordan  
ikkitabo'riotilib  
chiqb, itlarga  
yopishishdi. Itlar  
jon-jahdi bilan olishisha  
ketdilar. Hammayoq chang-  
to'zon bilan qoplandi. Hech  
narsani anglab bo'lmasdi.  
Faqat atrofdan it va  
bo'rilarining g'azabdan  
irillagan ovozlari kelardi,  
xolos. Men Raimjondan  
xavotirlanib, u turgan yerga



## Kunlardan bir kun

allaqanday g'ayritabiiy  
kulgularni eshitib qoladilar.

allakimning qattiq kulgani va  
ularning qo'llaridan kulbag'a

## TASHLANDIQ KULBA SIRI

Ular o'tayotgan joyda bir  
tashlandiq kulba bo'lib, u  
yerning egalari  
olamdan o'tib  
ketishgandan keyin  
uy qarovsiz qolgan  
ekan. Xullas,  
To'raxon aka kulbag'a  
kirib yon-atrofni  
qarabdilar. Shunda



bor kuchi bilan tortganini  
sezibdilar. To'raxon aka  
qattiq qo'rqiб ketib,  
bor ovozlari bilan  
o d a m l a r n i  
chaqiribdilar. Lekin  
ovozlari sira  
chiqmas mish... Ularni  
ertasi kuni o'sha kulbadan  
bexush holda topishibdi. Lekin

ular avvalgi To'raxon aka  
emas, hamma yog'ida  
allaqanday dog'lar, tiralgan  
izlar qolgan ekan...

O'sha voqeadan so'ng  
ular odamlardan o'zlarini olib  
qochadigan bo'lib  
qolibdilar. Kulbada nimalar  
bo'lganini hech kimga aytib  
bermas ekanlar...

*Shavkat*

*MIRSOATOV,*

*Toshkent viloyati,*

*Yugori Chirchiq tumani.*



Oyzoda buvasining ta'til boshida o'qib bergan kitobidan ayrligisi kelmaydi. Kitobi ham bir ajoyib. Boshqa kitoblarga o'xshamaydi. Kattakon, salmoqli. Rasmlari ham juda ko'p. Odatda kitoblarni bir boshdan, sahifama-sahifa o'qib boriladi. Bu kitobni esa boshidan o'qish shart emas. Bu kitob haqida dugonalariga aytganida Kamola rosa hayron bo'lgan edi:

-Qiziq-ku! Bu qanday kitob ekanki, uni oxiridan ham, o'rtaidan ham, boshidan ham o'qib ketilaversa...

Boshida Oyzodaning o'zi ham shunday hayron bo'lgan edi. Hozir esa bu kitobdan qanday foydalanishni biladi. O'ziga kerak joyini ochib, mazza qilib o'qiydi. Rasmlarini uzoq tomosha qiladi.


Aslida buvasining bu kitobni unga sovg'a qilishiga Oyzodaning tinmay savol beraverishi sabab bo'lgan edi. Savol bermay desa hech iloji yo'q: Yer nima? Osmon nima? Eshikdan tashqariga chiqsang, e'tiboringni yana ham ko'proq narsalar tortadi. Kimdir gugurt qutisidan sal kattaroq buyumni qulog'iga tutib, kim bilandir gaplashib ketyapti. Radioning ko'rinnmas to'lqinlari taralmoqda...

Bularning hammasini bilging keladi-da! Ana shular haqida Oyzoda buvasiga savollarni qalashtirib beraverardi: Kim? Nima? Qayerda? Qachon? Nima uchun?. Bir kuni buvasi mana shu kitobni olib kelib unga sovg'a qilar ekan dedi:

-Albatta odam dunyoda hamma narsani bilishi qiyin. Katta bo'lganing sari ko'plab yaxshi kitoblarni o'qiyasan. Kinoteatr, televizor, videoedagi filmlarni tomosha qilasan. Odamlar bilan suhbatlashganingda anchamuncha narsani o'rganasan. Asta-sekin ko'p narsani bilib borasan va bugun berayotgan savollaringning ko'piga o'zing javob bera oladigan bo'lsan.

Kattalarning «Ensiklopediya» deb ataluvchi kitoblari bo'ladi. Sen ularni kutubxonamizda ko'rgansan. Biror narsani bilish, tekshirish kerak bo'lib qolganda, ular ensiklopediyani o'qiydilar. «Bolalar ensiklopediyasi»ni esa bolalarga atab chiqarishibdi. Bu kitoblarining ichidagi eng bilimdon kitobdir. Hozircha sen undan o'zingni qiziqtirgan ko'plab muhim savollaringga javob olishing mumkin. Sen yaxshisi ushbu kitobning «E» harfida

«bilimlar doirasi» degani bo'lib, ilmlar majmui ma'nosini bildiradi. Maqola boshida esa ensiklopediyaning qanday dunyoga kelgani haqida rivoyat berilibdi. Sen uni o'q i . b , dugonalaringga g a p i r i b bersang y a x s h i bo'lardi.



qarab donishmandlarga debdi:  
-Umrim oxirlab qoldi. Ilmlarni yana saralang-da, bitta kitobga jo qiling, toki o'qib ulguray.

Donishmandlar ishga kirishib ketishibdi.

Kunlar ketidan k u n l a r o'taveribdi, b i r o q p o d s h o

buyurgan kitob ha deganda tayyor bo'lavermabdi. Axir, o'zi bo'ladimi hamma ilmlarni bitta kitobga joylashtirishning!

Xullas kalom, podsho munkillab, ko'zları xira tortib, zo'rg'a yuradigan bir holatga kelib qolganda ilmlar kitobi tayyor bo'libdi. Uni «Ensiklopediya» deb atashibdi. Qaniydi podshio uni o'qiy olsa. Donishmandlardar biri uni o'qib bersa ham umri yetishiga ko'zi yetmabdi. Shuning uchun podsho eng ulug'donishmandni chaqirib, hamma ilmlarni bitta jumlada ifodalab berishni so'rabdi.

Donishmand uzoq o'yabdi. Nihoyat shunday debdi:

-Ey, podshohi olam, inson bilishi lozim bo'lgan bitta ilm bor, u ham bo'lsa «olam bepoyon va murakkab», - debdi...

-Har bir rivoyatda ma'lum bir haqiqat bo'lganidek, yuqorida hikoyada ham haqiqat bor: ilmlar olami nihoyatda bepoyon va murakkab — uni o'rganishga bir odamning umri yetmaydi, oppoq qizim, - dedi buvasi. - Bu bilimlar kitoblarga jamlangan. Kitob bilan do'stlashgan kishining bilimi tobora ko'payib boradi. Shuning uchun ham qo'lingdagiga o'xshagan ensiklopedik kitoblarni «bilimdon kitoblar», «aql chirog'i» deb atashadi.

-Bu mening eng bilimdon kitobim! - dedi quvonib Oyzoda va shunday ajoyib kitob sovg'a qilgani uchun buvasiga rahmat aytdi.

Rahima  
SHOMANSUROVA.

## ENG BILIMDON KITOB

«Ensiklopediya» so'zini topib, diqqat bilan o'qib chiqqin. Shunda ensiklopediyaning naqadar bilimdon kitob ekanini bilib olasan va albatta u bilan o'rtoq bo'lib qolasan. Darhaqiqat, kitobni varaqlab, Oyzoda undagi hamma maqolalar huddi ularning sinf jurnalida o'rtoqlarining familiyasi joylashgani kabi alifbo tartibida berilganini bilib oldi. Har yangi harfga o'tilgan sahifada shu harf bilan boshlanadigan maqolalar mundarijasini ko'rib hursand bo'ldi. O'zini qiziqtirayotgan maqolalarni tez topib olishni buvasi bilan qayta-qayta mashq qilib ko'rdi.

-Ana, kitobdan qanday foydalanishni ham yaxshi bilib olding. Endi, «Ensiklopediya» maqolasini topib berchi,-dedi Oyzodaning buvisi.

-Xo'p bo'ladi!- dedi Oyzoda va «E» harfi boshlanadigan betni ahtara boshladi. -Mana buvijon mundarijasи 137-betda ekan. «Ensiklopediya» kitobimizda «Eman» so'zidan keyin, «Eron» so'zidan oldin berilgan ekan. Mana «Ensiklopediya» maqolasini ham topib oldik. U 146-betda ekan. Iye buvajon, maqola xuddi ertakka o'xshab «Birbor ekan, bir yo'q ekan, juda qadim zamonda bir podsho yashagan ekan...» deb boshlanibdi! Nima, «Ensiklopediya» ham ertakmi?

-Yo'q, ona qizim, «Ensiklopediya» yunoncha

Buvasining aytganini qilib, Oyzoda rivoyatni diqqat bilan o'qiy boshladi:


«Bir bor ekan, bir yo'q ekan, juda qadim zamonda bir podsho yashagan ekan. U o'z davlatining kuch-qudrati yoki xazinasining boyligi bilan emas, balki hamma narsani bilishga xohishi kuchli ekanligi bilan dunyoga dong taratgan ekan. Uning saroyidagi kutubxonani jamiki yangi kitoblar bilan to'ldirib turishar, u o'qigani o'qigan ekan. Kunlar o'tib u keksayib qolgach, hali o'qiydigan kitoblari nihoyatda ko'pligini, bularni o'qib ulgurishga kuchi yetmasligini sezibdi-da, donishmandlarni chaqirib kitoblar olamidagi ilmlarni saralab to'plab berishlariga farmon beribdi.

Donishmandlar yig'ilishib, uzoq bahslashishibdi: unisi buni muhim desa, boshqasi — boshqasini aytibdi. Xullas, saralangan kitoblar saroy kutubxonasidagi kitoblardan ko'paysa ko'payibdiki, lekin kamaymabdi. Kitoblarni ko'rib podsho bunday debdi:

-Bularning orasidan yana eng muhimlarini saralang. Shunday saralangki, ular xuv anavi xonaga sig'sin. -Podsho mo'jazgina xonani ko'rsatibdi. - Chunki o'shalarni o'qishga umrim yetsa ham katta gap.

Donishmandlar shunday qilishibdi: kitoblarni o'qib-o'qib muhimlari ichidan muhimlarini ajratishibdi. Biroq bu paytga kelib podsho ancha keksayib qolibdi. Saralangan kitoblarga

## Ustozlar ijodi



Bahrom UMIROV

## O'GIT

Ushbu o'git senga, ey farzand,  
Bo'lgin doim sobit qadamli.  
Yemagaysan biror yerda pand,  
Har ishda bo'l, bisyor chidamli.

Kirmagin sen hech egri yo'lga,  
Ketmasin, bil, sendagi obro'.  
Odobli bo'l, nurafshon birga  
Baxt keladi doim ro'baro'.



Savol so'rab qolganda do'sting,  
Burmagin hech yuzingni chapga.  
Balki aytar u kamu ko'sting,  
Qulqut tutgin u aytar gapga.

Fidokor bo'l, ota-onangning,  
Niyati bil, sen ushbu so'zni.  
Saqlay olgin pok va beg'ubor,  
Yoshligingdan vijdon, nomusni.

## KAMOLA

Maktabiga ko'cha bo'yab,  
Borar edi Kamola.  
Yo'lda yotgan paxtalarni  
Ko'rib dedi: uvol-a!

Momiqlarni etagiga,  
Terib oldi qoldirmay.  
Ustundagi qutichani,  
Der, ketmayman to'ldirmay.

Kamolaxon paxtadan,  
To'ldirdi qutichani.  
Buni ko'rgan kishilar,  
Olqishladi qizchani.

## MUALLIM XAYOLI

Qo'yarkanman sinfga qadam,  
Xayolimni band etar o'ylar.  
Chunki mehrim yoshlarga hamdam,  
Ertangi kun sharafin so'ylar.

Murg'ak dillar orzularini,  
Bayon etib berolamanmi?  
Pok qalblarga fan sirlarini  
Ulab, nурday kirolamanmi?

Tinchlik bermas menga shu o'ylar  
Va kasbimning sharafin so'ylar.

«MARGARITA»  
SHIRINLIGI

Margarin un bilan uvalanadi. Smetana yoki qaymoqqa tuxum sarig'ini solib, ozgina iste'mol sodasi sırka yordamida o'ldirilib solinadi va aralashtiladi. Aralashmani margarin va unni ustiga solib, yumshoq xamir qoriladi. Xamirni 10-15 daqiqa tindirib qo'yiladi.

Alovida idishda tuxum oqini shakar bilan ko'pirtirib, bize tayyorlanadi.


Tingan xamirni uch zuvalaga bo'lib, birinchi zuvala jo'va yordamida yoyiladi. Xamirning qalinligi 0,5 sm.dan

oshmasligi kerak. Tayyor bo'lgan bizeni xamir ustiga solib, yong'oq, magiz sepiladi (yong'oq, magiz o'rniga olmani parrak-parrak qilib to'g'rab solsangiz ham bo'ladi) va xatjild shaklida tugiladi. Qolgan ikkita zuvala ham shu tarza

## «KARAMLI SALAT»

Karamni maydalab, somoncha shaklida to'g'rab olinadi. Qizil sabzini somoncha shaklida qirg'ichdan chiqariladi. Bodringni ham

Qaymoq solib yana aralashtiladi. Idishlarga



## Ochil dasturxon

tayyorlab olinadi. O'rta olovda 20-25 daqiqa pishiriladi. Issiqligida ustiga qand upasi sepiladi.

## Kerakli masalliqlar:

200 gr. margarin, 4 st. un, 1 st. qaymoq yoki smetana, 3 ta tuxum, 1 st. shakar, 1 st. yong'oq, 1 st. magiz, soda, sırka, qand upasi.

somoncha shaklida to'g'raladi. Pomidorni mayda to'rtburchak shaklida to'g'rab olinadi. Kartoshkani somoncha shaklida to'g'rab, yog'da qizartirib olinadi. Ta'bga ko'ra sarimsoq piyoz ham mayda qilib to'g'raladi.


Ko'katlardan kashnich, ukropni maydalanadi. Hamma masalliqlarni yaxshilab aralashtiladi. Ta'bga ko'ra tuz solinadi.

solib usti ko'katlar bilan bezatiladi.

## Kerakli masalliqlar:

Bir bosh kichikroq karam, 4-5 ta qizil sabzi, 4-5 ta bodring, 2 ta o'rtacha kattalikdag'i pomidor, 4 ta o'rtacha kartoshka, 200 gr. yog'siz qaymoq yoki smetana, 200 gr. o'simlik yog'i (kartoshkani qovurish uchun), 2-3 dona sarimsoq piyoz, 0,5 bog'dan ukrop, kashnich, ta'bga ko'ra tuz.

Kamola XAMIDOVA tayyorladi.



**ONA SHAHRIM -  
KITOBIM**

(Oq she'r)

Bir qo'shiqsan,  
Seni tinglab huzurlanar jon.  
Olovdirsan,  
Yoniq tafting baxtimga doya.

Quvonchimsan,  
Har faslda uyg'onar ko'ngil.  
Sen - shu'lasan,  
Parvonangman to umrim qadar.

Tiz cho'kaman hoki poyingga,  
Farzand bo'lib oddiy, xokisor.  
Kindik qonim tomgan  
makonim,  
Gavharim, yagonam, ona  
Kitobim!

*Shaxlo XUDOYBERDIYEVA,  
Qashqadaryo viloyati,  
Kitob tumanidagi Ahad  
Xo'jayev nomli maktabning  
7 - sinf o'quvchisi.*


**BIZ O'ZBEKNING  
FARZANDLARI**

Biz o'zbekning farzandimiz,  
Biz yosh avlod, kelajak.  
Hali o'zbek farzandlari,  
Ahli sulton bo'lajak.

Bilasizmi, jahon ahli,  
Baxtu iqbol bizga yor,  
Chunki ozod, obod diyor,  
O'zbekiston bizda bor.

Shu hur Vatan biznikidir,  
Ona zamin bizniki.  
Barcha shodlik, barcha imkon,  
Xurram o'g'il-qizniki.

*Ma'rifat TEMIROVA,  
Qashqadaryo viloyati,  
Shahrisabz tumanidagi  
2 - Huquq va Iqtisod asoslari  
litsey internatining  
9 - sinf o'quvchisi.*

**Bizning bo'garak**

**TOMCHI SUVDA  
HAYOT JILVASI**

Tomchi suvda hayot jilvasi,  
Shu tomchidan boshlanur hayot.  
Usiz bir dam yasholmas inson,  
Unga bog'liq hayotu mamot.

Daryolarda yashar ming-ming jon,  
Suvni Vatan bilib o'ziga.  
Shunday ekan, asraylik uni,  
Oyoq bosma zinhor yuziga.


*Kamola UBAYEVA,  
Toshkent shahar, Sobir Rahimov  
tumanidagi 249 - maktabning  
8 - «A» sinf o'quvchisi.*


**CHORLAGIN OSMON**

Ey osmon, bag'ringga chorlagin meni,  
Sertashvish hayotdan hech ko'nglim to'lmas.  
Cheksiz qilib yaratgan axir bag'ringni,  
Loaqlal u yerda yomonlar bo'lmas.

Ey osmon, o'zingga chorlagin meni,  
Bag'ringda yana bir yulduzing bo'lay.  
So'nsam ham mayliga, faqat yerdamas,  
Sening bepoyon bag'ringda so'nay.

*Feruza AHMEDOVA,  
Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi  
7 - umumta'lim maktabning  
9 - «A» sinf o'quvchisi.*



Aziz bolajonlar, gazetamizning o'tgan sonlarida Toshkent shahridagi «Orom» nomli bog'cha-maktabning 4 - «J» sinf o'quvchisi Shahzoda RIZAYEVAning chizgan rasmlarini e'tiboringizga havola qilgandik. Tengdoshingiz bu gal sizning topog'onligu ziyrakligingizni sinab ko'rish maqsadida egizak tipratikanlarning rasmini chizib kelibdi. Ularning 9 ta farqini toping-chi.

Daryo bo'yida o'tirgan Sobir  
do'sti Botirdan so'radi:

- Daryoning suvi nega  
ko'prib oqayotgan ekan-a?

- Baliqlar kir  
yuvishayotgandir-da,-javob  
berdi Botir.

x x x

Dilobar onasiga dedi:

- Mana bu chumolining endi  
rosa tomog'i og'riydi.

- Qayoqdagi gaplarni  
topasan-a,-dedi kulib onasi.-  
Nega unday deyapsan?

- Chunki u ham menga  
o'xshab shirinlikka o'ch ekan.  
Qarang, shakarning ichiga tushib  
olibdi...

x x x



Asqar Malikadan so'radi:

- Fillarning qulog'i nega kat-ta  
bo'ladi?

- Yoshligida ko'p sho'xlik  
qilganliklari uchun dadalari  
qulog'idan cho'zib qo'yishgan-da,-  
javob berdi Malika bilag'onlik bilan.

x x x

Sardorlarning uyiga kelgan  
mehmon uni gapga soldi:

- Sen qachon maktabga  
chiqasan?

- Yetti, yoshga to'lganimda.

- Qachon yettiga to'lasan?

- Maktabga chiqqanimda...

x x x

Ona tili darsida o'qituvchi  
o'quvchidan so'radi:

- Gapning maqsadga ko'ra  
turlari necha xil bo'ladi?

- Ikki xil.

- Qanday gaplar?

- Rost va yolg'on gaplar...

*Dildora**EGAMBERDIYEVA,**Toshkent shahar, Akmal**Ikromov tumanidagi**312 - maktabning**4 - «A» sinfo 'quvchisi.*

## TEZ AYTISHLAR

Kitob hisob-kitobdan  
olindi,  
Hisob-kitob kitobdan  
olindi.

\*\*\*

Sho'rva shovladan  
sho'rmi,  
Shovla sho'rvadan  
sho'rmi?

\*\*\*

To'lqin to'pni to'ppa-  
to'g'ri to'rga tushirdi.

*Dilnoza JO'RAQULOVA,**Samarqand shahar,**Temiryo'l tumanidagi**39-tayanch maktabning**7-«V» sinfo 'quvchisi.*

Bu voqeя yoz kunlarining birida sodir  
bo'lgandi. Uch yoshli Nigora qum  
ustida dugonalari bilan «xola-xola»  
o'ynab o'tirardi. Ko'cha boshidan  
militsiya kiyimidagi bir yigit unga qarab  
kulib kelardi.

- Dadam, dadajonim keldilar,-deya  
qizcha uning bo'yniga osilib oldi. - Bu  
shokoladlar mengami?

- Ha, asal qizim, sizga.

- Rahmat dadajon!

Ular yetaklashib, hovliga  
kirishdi. Supada  
Nigoraning ayasi,  
buvisi, bobosi va  
chaqaloq ukasi  
o'tirishardi.  
Jamul-jam bo'lib  
ovqatlanishdi.  
Idish-tovoqlarni  
yig'ishtirib  
yurgan ayasiga  
«qarashib»  
yurgan Nigoran  
dadasi yoniga chaqirib:

- Ona qizim, ertaga mening dam olish  
kunim. Sizlarni qayerga olib boray?-deb  
so'radi.

- Arg'imchoqqa!- dedi Nigora  
qo'llarini havoda aylantirib. -Yana  
muzqaymoq ham olib bering.

- Juda yaxshi. Bugun barvaqtroq  
yoting. Ertaga aylangani boramiz...

Ertasi kuni Nigora nonushtadan  
so'ng dugonalardan suyunchi olgani  
ko'chaga chiqib ketdi. Ayasi esa  
sandiqning ustidagi ko'rpalarni

ag'darib, allanima qidira boshladi.

- Shu ishingizni boshqa kuni qilsangiz  
bo'lmaydimi?-deya e'tiroz bildirdi dadasi.

- Mana bu chiroyli atlasdan Nigoraga  
ko'ylak tikib bermoqchiman. Sayrga kiyib  
borsin,-dedi ayasi va chaqqonlik bilan

## QIZALOQ

*(Hikoya)*

ishga kirishib ketdi...

- Kelin, o'g'lingizning uyqusি kelib  
qoldimi deyman, injiqlanyapti,-dedi  
buvisi tashqaridan.-Uxlatib  
qo'yaqoling, ishingizni keyin  
davom ettirasiz.

- Hozir oyijon,-dedi ayasi yangi  
ko'ylakchani stulning  
suyanchig'iga tashlab. Ukasini  
uyga olib kirib ketayotganida  
Nigora deraza tagida  
qo'g'irchog'ini allalab o'tirardi:

*Qo'g'irchog'im Natasha,**Yeb qo'yibdi ko'p kasha.**Endi nima qilamiz,**Do'xtirni chaqiramiz...*

O'g'ilchasini uxlatib chiqqan ayasi  
hovli tarafga qarab:

- Oyijon, Nigoradan bir xabar olib  
qo'ying, uzoqqa ketib qolmasin, men  
ovqatga qaray,-deya oshxona tarafga  
yo'naldi.

- Nigora, hoy Nigora,- deb  
chaqirgancha tashqariga chiqdi buvisi.  
Qum ustida bir to'da bolalar o'ynab  
o'tirishardi. Lekin ularning orasida qizcha

ko'rinnmasdi. Vahimaga tushgan buvi  
nabirasini izlay boshladi. Bolalardan biri  
Nigorani daryo tomonga tushib  
ketayotganini ko'rganini aytди. Hamma  
oyoqqa turdi. Kattalar to'rt tarafga  
tarqalib, qizchani izlay boshlashdi. Ota-  
onasi-ku o'zlarini qo'yarga joy  
topolmay qolishdi. Dadasi suv yoqalab  
har bir daraxtning, o't-o'lanlarning  
tagini birma-bir ko'zdan kechirib chiqdi.  
Buvisi biror yerda uxbab qolgandir,  
degan ilinjda uylarni qidirib chiqdi.  
Qo'ni-qo'shnilar ham qizchani qidira  
boshlashdi. Hech qayerda yo'q.  
Chamasi uch soatlar davomidagi  
urinishlari befoyda ketdi. Ayasining  
ko'z yoshlari yuzini yuvib tushar, buva  
va buvisi, qo'shnilar uni yupatishardi.  
Shu payt buvisining ko'zi eshik yonida  
turgan Nigoraning tuflisiga tushib qoldi.

- Tuflisi turibdi-ku, u oyoqyalang  
hech qayerga ketmasdi,-deya qichqirib  
yubordi u. Va shiddat bilan uyg'a kirib  
ketdi. Shu payt yangi ko'rpalarning  
ustida bir nima qimirlagandek bo'ldi. Ne  
ko'z bilan ko'rsaki, nabirasni ko'rpaga  
o'ranib olib, terlab-pishib uxbab yotibdi...  
Oxistagina oyoq uchida yurib  
tashqariga chiqdi va bor gapni aytib  
berdi. Ayasining ko'zidagi yoshlari  
quvonch yoshlari aylanib ketdi...

Shu payt ichkaridan Nigoraning  
qo'ng'iroqdek kulgusi eshitilib qoldi:

- Ur-re, yangi ko'ylagim bitibdi. Endi  
arg'imchoqqa boramiz...

*Dildora IBRAGIMOVA,*  
*Surxondaryo viloyati,*  
*Termiz shahridagi 1 - umumta'lim*  
*maktabning 7-«A» o'quvchisi.*






5 avgust

## TONG YULDUZI

2002

BO'SH O'FIRMAV, BOSH QOTIR!



## SAVOLLAR:

1. Ost.
2. Asal.
3. Taom.
4. Uka.
5. Adovat.
6. Sabzavot va don ko'mish uchun maxsus qazilgan chuqurlik, o'ra.
7. Qizlarning ismi.
8. Gul turi.
- 9.
- 10.
- 11.
- 12.

Ta'lim - .... 10. Ilon turi. 11. Baqa bolasi. 12. Kunchiqar davlat.

*Iroda HAKIMOVA,  
Shayxontohur tumanidagi  
320 - muktab o'quvchisi.*

## ENG MITTI QUSH

Dunyodagi eng mitti qush bu kalibra. Uning og'irligi atigi 200-300 gramm keladi. U Afrika va Avstraliyada yashaydi.

## ENG KICHIK MAMLAKAT

Eng kichik mamlakat bu - Vatikandir. Vatikan aholisini ruhoniylar tashkil qiladi. Ularning soni atigi 150 nafarga teng.

## ENG INGICHKA VA PISHIQ IP

Olimlarning aniqlashicha, eng pishiq va ingichka ip bu o'rgimchak to'rining ipi ekan. U inson sochidan bir necha o'n baravar ingichka bo'lib, pishiqligi jihatidan oddiy ipdan 20-10 baravar pishiq ekan.

M. TO'XTAYEVA,  
Poytaxtimizdagi 116 - muktabning  
8 - sinfo o'quvchisi.



## O'RGIMCHAK QONINING RANGI QANDAY?

Hasharotlarning qoni qizil rangda bo'lishini hammamiz bilamiz. Lekin o'rgimchaklar bundan mustasno. Ularning qoni ko'k rangda bo'larkan.

## BALIQLARNING ENG KATTASI

Baliqlarning eng kattasi bu kitsimon akuladir. Uning bo'yisi 30 metr, eni 6,5 metr, og'irligi esa 2 tonna kelar ekan. Buni qarangki, shunday bahaybat baliq juda beozor bo'lib, suv hasharotlarini yeb, kun kechirarkan.

*Qizlarxon YO'LDOSHEVA,  
Toshkent shahar, Mirobod  
tumanidagi 214 - muktabning  
6 - «V» sinfo o'quvchisi.*

Ona yurting - oltin beshiging

## TONG Yulduzi

*O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi*

Muassislar:  
O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI,  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,  
«KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOIY HARAKATI,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» XAYRIYA JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:  
Umida ABDUAZIMOVA  
TAHRIR HAY'ATI:  
Shuhrat AHMEDOV,  
Jamoliddin FOZILOV,  
Oynisa MUSURMONOVA,  
Qahramon QURONBOYEV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinnbosari),  
Po'lat MO'MIN,  
Mukarrama MURODOVA,  
Tohir MULLABOYEV,  
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi» nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi» nashriyot uyi kompyuter bo'limida terib sahfalandi.  
Hajmi A-4, 2 bosma taboq.  
“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida 46.291 nusxada ofset usulida bosildi.  
Korxona manzili: “Buyuk Turon” ko'chasi, 41.  
Buyurtma № Г-761  
Gazetani  
Muhabbat MAHSUDOVA sahfalandi.  
Navbatchi:  
Feruza ODILOVA

Ro'yxatda o'tish tartibi № 000137  
Manzilimiz: 700129,  
Toshkent shahri, Navoiy  
ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-62-34.  
144-63-08